


MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL

IYUL/7-SON, II-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ФИЛИАЛ В г. ТАШКЕНТЕ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyul.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

OILAVIY KORXONALAR FAOLIYATINI BOSHQARISHNING TASHKILY MEXANIZMINI TIZIMLI TAHLILI	10
Sultonov Bobirmirzo Mavlonjon o'g'li	
NEW ZEALAND'S EXPERIENCE IN TRANSITIONING TO INFLATION TARGETING	21
Duskobilov Umidjon Sharofiddinovich	
ВЛИЯНИЕ ПАРАМЕТРОВ ПРОЦЕССА ТЕКУЧЕСТИ НА СВОЙСТВА ГРАНУЛИРОВАННЫХ МАТЕРИАЛОВ НА ОСНОВЕ УГОЛЬНЫХ ОТХОДОВ В РАМКАХ ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКИ	28
Абдуганиев Азизбек, Кулдашева Азиза	
BUDJET TUSHUMLARINI OSHIRISHDA BOJXONA TO'LOVLARIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI EKONOMETRIK BAHOLASH VA PROGNOZLASH	33
Fayzullayev Farrux Sharofovich	
O'ZBEKISTON KORXONALARIDA MOLYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA (MHXS) O'TISHDA UCHRAYDIGAN ASOSIY MUAMMOLAR: SO'ROVNOMA NATIJALARI ASOSIDA TAHLIL	41
Safarova Gulbahor Nusratovna	
ТЕМИР YO'L TRANSPORTI INNOVATSION EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISH MODELI	45
Muradov Bahrom, Masharipov Ma'sud	
TIJORAT BANKLARIDA QARZ OLUVCHILARNING TO'LOVGA LAYOQATLILIGINI BAHOLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	49
Soibov Jamshid Raxmatqulovovich	
O'ZBEKISTONDA CHEGARALARARO TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA BOJXONA XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	56
Ergashev Qobiljon Ernazarovich	
TIJORAT BANKLARIDA ICHKI AUDITNING IQTISODIY MOHIYATI VA FUNKSIONAL EVOLYUTSIYASI: XALQARO STANDARTLARNING YANGI AVLADI ASOSIDAGI YONDASHUV	62
Narziyev Xayotjon Azamatovich	
MOLYAVIY INVESTITSİYALAR AUDITINI O'TKAZISH METODIKASINI VA AUDIT RISKLARINI BAHOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH	69
Jumamurodov To'libay Yeldashbayevich	
MOLYAVIY HISOBOT IZOHLARIDA UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR QADRSIZLANISHI YUZASIDAN OCHIB BERILADIGAN AXBOROTLAR TARKIBINI KENGAYTIRISH ORQALI HISOBOT SHAFFOFLIGINI OSHIRISH.	75
Fayzullayev Begzod Baxtiyor o'g'li	
XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASINI O'ZBEKISTON DAVLAT SEKTORI ICHKI AUDITIGA MOSLASHTIRISHNING KONSEPTUAL MODEL VA MUHIMLIK DARAJALARINI ME'YORIY-HUQUQIY BAZAGA JORIY ETISH	82
Ismatillayev Baypo'lat Xushvaqtovich	
O'ZBEKISTONDA TOVAR YETKAZIB BERISH ZANJIRI ISHTIROKCHILARI FAOLIYATI VA BOJXONA NAZORATI TIZIMINING ZAMONAVIY HOLATI TAHLILI	90
Ergashev Qobiljon, Kilichov Nazar	
DAVLAT XARIDLARI BO'YICHA ICHKI AUDITNING XATARGA YO'NALTIRILGAN METODOLOGIYASI	96
Rajabov Shuxrat Ismayilovich	
TIJORAT BANKLARIDA ICHKI AUDIT XIZMATI TUSHUNCHASINING IQTISODIY MAZMUNI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	101
Ismailov Azizbek Madaminovich	
YENGIL SANOAT KORXONALARIDA XATARGA YO'NALTIRILGAN ICHKI AUDIT METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	109
Tojiyeva Shahlo Mahmatmurodovna	



IQTISODIY O'SISH OMILLARINI RIVOJLANISHIDA MOLIVAVIY XAVFLARNING TA'SIRI VA ULARNI KAMAYTIRISH IMKONIYATLARI	115
Turopova Nigora Xolmurod qizi	
QASHQADARYO VILOYATIDA YALPI HUDUDII MAHSULOT VA BANDLIK KO'RSATKICHLARI O'RTASIDAGI KORRELYATSION BOG'LIQLIK.....	118
Karimov Olimjon Akramovich	
ИННОВАЦИОННЫЕ МЕХАНИЗМЫ УПРАВЛЕНИЯ ЖИЛИЩНЫМ СТРОИТЕЛЬСТВОМ В Г. ТЕРМЕЗЕ В УСЛОВИЯХ РОСТА ИНВЕСТИЦИОННОЙ АКТИВНОСТИ	124
Токсонов Хуршид Эгамбердиевич	
VINOCHILIK SANOATI KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	129
Botirov Lazizbek Botirovich	
MEHNATGA HAQ TO'LASHNING IQTISODIY MAZMUNI, TASNIFI VA HISOB OBYEKT LARI SIFATIDAGI XUSUSIYATLARI	134
Anvar Raximov Maxmarasulovich	
IQTISODIY ISLOHOTLAR JARAYONIDA TIJORAT BANKLARI RESURS BAZASI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI	139
Marpatov Shavkat Mavlonxonovich	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA INVESTITSION LOYIHALAR UCHUN MOLIVALASHTIRISH MANBALARINI DIVERSIFIKATSİYALASHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	145
Qurbonov Jasurbek Pozilovich	
МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ КОНКУРЕНТНЫМ ПОТЕНЦИАЛОМ ПРЕДПРИЯТИЙ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ.....	150
Ташмухамедова Карима Саматовна	
МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ КОНКУРЕНТНЫМ ПОТЕНЦИАЛОМ ПРЕДПРИЯТИЙ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ.....	156
Sultonmurod Qurbonov, Ahmadjon Ibadullaev, Elmira Teshabayeva, Umar Chorshanbiev	
ECONOMIC STRUCTURE AND DEVELOPMENT PRIORITIES FOR STRENGTHENING INTERREGIONAL ECONOMIC COOPERATION: EVIDENCE FROM NAMANGAN REGION	161
Sattarov R. A.	
MATERIALLARNING TARKIBI VA TUZILISHINING ULARNING XOSSALARIGA TA'SIRINI TAHLIL QILISH... ..	167
Tuxliyev Muslimbek Sherzod o'g'li	
REMOTE WORK AND EMPLOYEE ENGAGEMENT: INSIGHTS FROM TASHKENT IT FIRMS.....	171
Narmurodova Sitara Aktamovna	
OPTIMIZING CONVERGENT-DIVERGENT ROCKET NOZZLE GEOMETRY (30°/10°) TO ENHANCE THE ALTITUDE PERFORMANCE OF MODEL ROCKETS USING SOLID SUGAR PROPELLANTS.....	176
Berdiyev Usmon Tolib o'g'li	
TIRBAND HUDUDLARDA SODIR BO'LAYOTGAN YO'L-TRANSPORT HODISALARINING TAHLILI.....	181
Xolmatov Umid Sadirdinovich	
TRANSPORT TIZIMIDA HARAKAT XAVFSIZLIGIGA KOMPLEKS TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI GIS-TSI ASOSIDA BAHOLASH VA KAMAYTIRISH (JIZZAX SHAHRI MISOLIDA)	186
Kamolov Otabek Quدراتovich	
DEVELOPMENT OF ELASTOMER COMPOSITIONS BASED ON LOCAL RAW MATERIALS FOR RAILWAY RAIL PADS AND EVALUATION OF THEIR DYNAMIC PROPERTIES.....	192
Ibadullaev Akhmadjan, Lesov Kuvandik, Samandarov Xushnodbek, Chorshanbiev Umar	
SHUDGORLANGAN YERLARNI EKISHGA TAYYORLASHDA QO'LLANILADIGAN MASHINA PLANKALI G'ALTAKMOLASINING PARAMETRLARINI ASOSLASH	198
Muqimova Davlatxon, Giyasidinov Abdumannob, Haydarov Murodjon	
HUMAN CAPITAL DEVELOPMENT AND ITS IMPACT ON THE BUSINESS ENVIRONMENT IN UZBEKISTAN: A LITERATURE REVIEW	203
Dilafroz Kuchkorova	



KLASTERLARDA ASOSIY FAOLIYAT DAROMADLARI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	209
Shirov Javlonbek Akbarovich	



KLASTERLARDA ASOSIY FAOLIYAT DAROMADLARI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH

Shirov Javlonbek Akbarovich

Mustaqil tadqiqotchi

Email: javlonbekshero9@gmail.com

ORCID: 0009-0001-0558-1364

Annotatsiya: Mazkur maqolada paxta klasterlarida asosiy faoliyat daromadlari hisobini takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etilgan. Daromadlarni tan olish, tasniflash va analitik hisobini yuritish masalalari IFRS 15 talablari asosida tahlil qilinib, qiymat zanjiri bosqichlari bo'yicha hisobni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: paxta klasteri, asosiy faoliyat daromadi, daromadlar hisobi, IFRS 15, analitik hisob, qiymat zanjiri, transfer narxlash, moliyaviy hisobot, buxgalteriya hisobi, daromadlarni tan olish.

Аннотация: В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты совершенствования учета операционной прибыли в хлопковых кластерах. Анализируются вопросы признания, классификации и аналитического учета выручки на основе требований МСФО 15, а также разрабатываются научно-практические предложения по совершенствованию учета на этапах цепочки создания стоимости.

Ключевые слова: хлопковый кластер, операционная прибыль, учет прибыли, МСФО 15, аналитический учет, цепочка создания стоимости, трансфертное ценообразование, финансовая отчетность, бухгалтерский учет, признание выручки.

Abstract: This article examines the theoretical and practical aspects of improving the accounting of operating income in cotton clusters. The issues of revenue recognition, classification and analytical accounting are analyzed based on the requirements of IFRS 15, and scientific and practical proposals are developed to improve accounting at the stages of the value chain.

Keywords: cotton cluster, operating income, income accounting, IFRS 15, analytical accounting, value chain, transfer pricing, financial reporting, accounting, revenue recognition.

KIRISH

Jahonda qishloq xo'jaligi va sanoat integratsiyasiga asoslangan klaster tizimlari iqtisodiyotning strategik yo'nalishlaridan biri sifatida jadal rivojlanmoqda. Ayniqsa, paxta-to'qimachilik, meva-sabzavotchilik va boshqa agroklastarlarda yaratilayotgan qo'shilgan qiymatni ishonchli hisobga olish, daromadlarni to'g'ri tan olish hamda moliyaviy natijalarni haqqoniy aks ettirish korxonalar raqobatbardoshligini ta'minlashning muhim omiliga aylanmoqda. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari, xususan, 15-son MHXS "Mijozlar bilan tuzilgan shartnomalar bo'yicha daromadlar" talablari asosida daromadlarni tan olish tamoyillarini klaster faoliyatiga moslashtirish zarurati ortib bormoqda. Klasterlarda xomashyoni yetishtirish, qayta ishlash, ichki transfer operatsiyalari va tayyor mahsulot realizatsiyasi o'zaro uzviy bog'liq bo'lgani sababli asosiy faoliyat daromadlarini hisobga olishning mavjud usullarini takomillashtirish, daromadlarning bosqichma-bosqich shakllanishini ishonchli aks ettirish hamda boshqaruv qarorlarini sifatli axborot bilan ta'minlash ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb masala hisoblanadi.

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda klasterlar faoliyatining diversifikatsiyalashuvi, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, mahsulotlar harakatining murakkablashuvi va xalqaro bozorlarga integratsiyalashuv jarayonlari daromadlar hisobini yangi yondashuvlar asosida tashkil etishni talab etmoqda. Ayniqsa, klaster ichidagi o'zaro hisob-kitoblari, transfer narxlari, shartnomalar bo'yicha majburiyatlarning bajarilish bosqichlari hamda daromadlarning haqiqiy iqtisodiy mazmunini aks ettirish bilan bog'liq masalalar mavjud hisob tizimlarini yanada takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shu nuqtai nazardan, klasterlarda asosiy faoliyat daromadlarini tan olish, baholash, hujjatlashtirish va moliyaviy hisobotlarda aks ettirishning takomillashtirilgan uslubi

ishlab chiqish, buxgalteriya hisobi axborotlarining ishonchliligini oshirish, moliyaviy natijalarni aniq shakllantirish hamda boshqaruv samaradorligini yuksaltirishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Klasterlarda asosiy faoliyat daromadlari hisobini takomillashtirish masalalari iqtisodiyot, buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot sohasidagi ko'plab ilmiy tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu masala bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda daromadlarni tan olishning nazariy asoslari, xalqaro moliyaviy hisobot standartlari talablari, klaster faoliyatida qiymat zanjiri bo'yicha daromadlarning shakllanishi, analitik hisobni tashkil etish hamda moliyaviy hisobotning ishonchliligini ta'minlash masalalari keng yoritilgan. Xorijiy olimlar asosan daromadlarni tan olishning xalqaro metodologiyasi va klasterlarning iqtisodiy samaradorligiga e'tibor qaratgan bo'lsalar, Rossiya olimlari buxgalteriya hisobi metodologiyasi va daromadlarni hujjatlashtirish masalalarini chuqur tadqiq etganlar. O'zbekistonlik olimlar esa milliy buxgalteriya hisobi tizimini xalqaro standartlarga uyg'unlashtirish hamda klasterlar faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda daromadlar hisobini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqqanlar. Shu bois mazkur tadqiqot doirasida mavzuga oid ilmiy manbalar tahlil qilinib, mavjud yondashuvlar umumlashtiriladi hamda klasterlarda asosiy faoliyat daromadlari hisobini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari aniqlanadi.

1-guruh. Daromadlarni tan olishning nazariy va uslubiy asoslarini o'rgangan olimlar. Kieso, D.E., Weygandt, J.J. va Warfield, T.D. [1] (AQSH) o'zlarining *Intermediate Accounting* asarida daromadlarni tan olish korxona tomonidan nazorat xaridorga o'tkazilgan paytda amalga oshirilishi lozimligini ta'kidlaydilar. Mualliflar daromadni tan olishda shartnoma majburiyatlari va iqtisodiy manfaatlarining o'tishini asosiy mezon sifatida ko'rsatganlar.

Epstein, B.J. va Mirza, A.A. [2] (AQSH) IFRS bo'yicha izohli qo'llanmasida IFRS 15 standartining besh bosqichli modeli murakkab xo'jalik operatsiyalarini hisobga olishda eng maqbul yondashuv ekanligini asoslaydilar. Ularning fikricha, daromadlarni noto'g'ri tan olish moliyaviy hisobot ishonchliligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Nobes, C. va Parker, R. [3] (Buyuk Britaniya) xalqaro buxgalteriya hisobi tizimlarini taqqoslab, daromadlar hisobining sifati mamlakatlarda qo'llanilayotgan standartlar uyg'unligi va institutsional muhitga bevosita bog'liq ekanligini qayd etganlar.

Schaltegger, S. va Burritt, R. [4] (Germaniya) korxonalarda barqaror rivojlanish hisobi konsepsiyasini ishlab chiqib, daromadlarni baholashda moliyaviy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda qiymat zanjiri bo'yicha yaratilgan qo'shilgan qiymatni ham hisobga olish zarurligini ta'kidlaydilar.

Xulosa. Mazkur guruh olimlari daromadlarni tan olishning asosini IFRS talablari, shartnomaviy majburiyatlarning bajarilishi va iqtisodiy nazoratning o'tishi bilan bog'laydilar.

2-guruh. Klaster iqtisodiyoti va agrobiznes samaradorligini o'rgangan olimlar. Porter, M.E. [5] (AQSH) klasterlar nazariyasini ishlab chiqib, korxonalar o'rtasidagi integratsiya va qiymat zanjiri iqtisodiy samaradorlikni oshirishini asoslagan. Muallifning fikricha, klasterlarda yaratilayotgan qo'shilgan qiymatni aniq hisobga olish boshqaruv samaradorligini oshiradi.

Астахов В.П. [6] (Rossiya) buxgalteriya hisobi nazariyasida daromadlarni xo'jalik operatsiyalarining iqtisodiy mazmunidan kelib chiqib tan olish zarurligini ta'kidlaydi. U daromadlarni hujjatlashtirish va analitik hisobni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratadi.

Палий В.Ф. [7] (Rossiya) moliyaviy hisobotning ishonchliligini ta'minlash uchun daromadlarni hisobga olishda sintetik va analitik hisobning uzviy bog'liqligini ta'minlash zarurligini asoslaydi.

Xulosa. Ushbu olimlar klaster va boshqa integratsiyalashgan xo'jalik subyektlarida daromadlarni hisobga olish qiymat zanjiri, ichki operatsiyalar va analitik hisob bilan uyg'unlashgan holda tashkil etilishi lozimligini e'tirof etadilar.

3-guruh. Buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar. **Соколов Я.В.** [8] (Rossiya) buxgalteriya hisobi metodologiyasini rivojlantirishda xo'jalik operatsiyalarining iqtisodiy mazmuni huquqiy shakldan ustun turishi kerakligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, daromadlar hisobi korxona faoliyatining real moliyaviy natijasini aks ettirishi zarur.

В. Хасанов [9] (O'zbekiston) buxgalteriya hisobi milliy tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish bo'yicha tadqiqotlarida daromadlarni tan olish va moliyaviy hisobotni shakllantirishda IFRS talablarini bosqichma-bosqich joriy etish zarurligini asoslaydi.

К.В. Уразов [10] (O'zbekiston) korxonalarda buxgalteriya hisobi metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha ilmiy ishlarida analitik hisobni chuqurlashtirish, xo'jalik operatsiyalarini batafsil hujjatlashtirish va boshqaruv qarorlarini sifatli axborot bilan ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratadi.

А. Ризақулов [11] (O'zbekiston) qishloq xo'jaligi korxonalarida buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlarida agroklastarlarda daromad va xarajatlarni mahsulot turlari hamda ishlab



chiqarish bosqichlari kesimida hisobga olish boshqaruv samaradorligini oshirishini ta'kidlaydi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, xorijiy olimlar asosan 15-son MHXS talablari asosida daromadlarni tan olish metodologiyasi, qiymat zanjiri va klasterlarning iqtisodiy samaradorligi masalalariga e'tibor qaratganlar. Rossiyalik olimlar daromadlarni hujjatlashtirish, analitik va sintetik hisobni uyg'unlashtirish hamda xo'jalik operatsiyalarining iqtisodiy mazmunini ustuvor qo'llash zarurligini asoslaganlar. O'zbekistonlik olimlar esa xalqaro standartlarni milliy amaliyotga moslashtirish, analitik hisobni rivojlantirish va agroklastlar faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda buxgalteriya hisobi tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqqanlar. Biroq tahlillar shuni ko'rsatadiki, paxta-to'qimachilik klasterlarida asosiy faoliyat daromadlarini qiymat zanjirining barcha bosqichlari kesimida tan olish, ichki transfer operatsiyalarini hisobga olish hamda yagona integratsiyalashgan hisob modelini ishlab chiqish masalalari yetarli darajada tadqiq etilmagan. Mazkur tadqiqot aynan ushbu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda klasterlarda asosiy faoliyat daromadlari hisobini takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganishda tizimli yondashuv hamda ilmiy bilishning umumiy va maxsus usullaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida iqtisodiy hodisa va jarayonlarni kompleks baholash maqsadida tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, taqqoslash, guruhlash, kuzatish, iqtisodiy-statistik tahlil, qiyosiy tahlil hamda grafik tasvirlash usullari qo'llanildi. Shuningdek, klasterlarda daromadlarni tan olish va hisobga olish amaliyoti 15-son MHXS "Mijozlar bilan tuzilgan shartnomalar bo'yicha daromadlar" standarti, O'zbekiston Respublikasining buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlari hamda ilg'or xorijiy tajribalar asosida qiyosiy tahlil qilindi. Tadqiqotning empirik bazasini paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyati, ularning moliyaviy hisobotlari, buxgalteriya hisobi ma'lumotlari va statistik ko'rsatkichlari tashkil etdi. Olingan natijalarni umumlashtirish asosida klasterlarda asosiy faoliyat daromadlarini tan olish, hujjatlashtirish, analitik hisobini yuritish va moliyaviy hisobotlarda aks ettirishni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish, mahsulot ishlab chiqarish zanjirini uzluksiz tashkil etish hamda yuqori qo'shilgan qiymat yaratishni ta'minlash maqsadida klaster tizimi keng joriy etilmoqda. Xususan, paxta-to'qimachilik, meva-sabzavotchilik va boshqa agroklastlarining rivojlanishi natijasida xomashyo yetishtirish, uni qayta ishlash va tayyor mahsulotni realizatsiya qilish jarayonlari yagona boshqaruv tizimida amalga oshirilmoqda. Bunday sharoitda klasterlar faoliyatida asosiy faoliyat daromadlarini to'g'ri tan olish, ularni ishlab chiqarish bosqichlari bo'yicha hisobga olish, ichki transfer operatsiyalarini hujjatlashtirish hamda moliyaviy hisobotlarda ishonchli aks ettirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, amaldagi buxgalteriya hisobi tizimini yanada takomillashtirish orqali klasterlarning ko'p bosqichli faoliyatidan shakllanadigan daromadlarni yagona metodologiya asosida hisobga olish, moliyaviy natijalarni yanada aniq baholash hamda samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyatlarini kengaytirish uchun qulay sharoitlar yaratilmoqda.

Shu nuqtai nazardan, klasterlarda asosiy faoliyat daromadlari hisobini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari talablari hamda milliy buxgalteriya hisobi amaliyotini uyg'unlashtirgan holda takomillashtirish muhim ilmiy va amaliy vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, klaster tarkibidagi korxonalar o'rtasidagi ichki hisob-kitoblar, transfer narxlari, mahsulotning qiymat zanjiri bo'yicha harakati va daromadlarning bosqichma-bosqich shakllanishini aks ettiruvchi analitik hisobni rivojlantirish zarurati ortib bormoqda. Klasterlarda asosiy faoliyat daromadlarini tan olish, hujjatlashtirish va moliyaviy hisobotlarda aks ettirishning takomillashtirilgan uslubiyotini ishlab chiqish buxgalteriya hisobi axborotlarining ishonchligini oshirish, moliyaviy natijalarni haqqoniy shakllantirish hamda klasterlar faoliyatining iqtisodiy samaradorligini yuksaltirishga xizmat qiladi (1-rasm).



1-rasm. O'zbekistonda klasterlar faoliyati bo'yicha asosiy statistik ko'rsatkichlar¹

Klasterlarda asosiy faoliyat daromadlari ishlab chiqarish jarayonining ko'p bosqichli va integratsiyalashgan xususiyatiga ega bo'lib, ularni samarali boshqarish hamda buxgalteriya hisobida ishonchli aks ettirish maqsadida ilmiy asoslangan tasniflash muhim ahamiyat kasb etadi. Daromadlarni iqtisodiy mazmuni, shakllanish manbalari, tan olish vaqti, hisobga olish xususiyatlari hamda mahsulot va bozor yo'nalishlari bo'yicha guruhlash ularning har bir bosqichdagi shakllanish jarayonini aniq kuzatish, analitik hisobni takomillashtirish va moliyaviy hisobotlarda haqqoniy aks ettirish imkonini beradi. Shu munosabat bilan paxta klasterlarida asosiy faoliyat daromadlarining taklif etilayotgan tasnifi ishlab chiqildi (2-rasm).

1 Manba: muallif ishlanmasi.

2-rasm. Paxta klasterlarida asosiy faoliyat daromadlarining tasnifi²

Muallif tomonidan paxta klasterlarining ishlab chiqarish, qayta ishlash va realizatsiya qilish bosqichlarini qamrab oluvchi qiymat zanjiri, 15-son MHXS "Mijozlar bilan tuzilgan shartnomalar bo'yicha daromadlar" standarti talablari, milliy buxgalteriya hisobi me'yorlari hamda klasterlar faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy xususiyatlari asosida ishlab chiqilgan. Mazkur tasnif asosiy faoliyat daromadlarini iqtisodiy mazmuni, shakllanish manbalari, tan olish vaqti, hisobga olish xususiyatlari hamda mahsulot va bozor yo'nalishlari bo'yicha tizimli guruhlash imkonini beradi. Natijada daromadlarning qiymat zanjirining har bir bosqichida shakllanishini alohida nazorat qilish, ichki transfer operatsiyalarini analitik hisobda aks ettirish, moliyaviy hisobotlarning ishonchligini oshirish hamda klaster faoliyatining moliyaviy natijalarini yanada aniq baholash uchun zarur axborot bazasi yaratiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Paxta klasterlarida asosiy faoliyat daromadlarini ilmiy asoslangan tasniflash ularning shakllanish manbalarini, tan olish vaqtini, hisobga olish xususiyatlarini hamda mahsulotlar bo'yicha qiymat zanjiri kesimidagi harakatini tizimli ravishda aks ettirish imkonini beradi. Taklif etilgan tasnif daromadlarni analitik hisobda batafsil guruhlash, ichki transfer operatsiyalarini alohida hisobga olish, moliyaviy hisobotlarda daromadlarni ishonchli aks ettirish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun sifatli axborot bazasini shakllantirishga xizmat qiladi. Natijada klasterlar faoliyatining moliyaviy natijalarini aniq baholash, daromadlar hisobining shaffofligini oshirish hamda xalqaro moliyaviy hisobot standartlari talablariga muvofiq hisob tizimini takomillashtirish imkoniyati yaratiladi.

Biz tadqiqotimiz davomida quyidagi taklif va tavsiyalarni ishlab chiqdik. Birinchidan, paxta klasterlarida asosiy faoliyat daromadlarini qiymat zanjirining har bir bosqichi hamda mahsulot turlari kesimida alohida analitik schyotlarda hisobga olish tizimini joriy etish maqsadga muvofiq. Ikkinchidan, klaster tarkibidagi korxonalar o'rtasida amalga oshiriladigan ichki transfer operatsiyalaridan shakllanadigan daromadlarni tashqi realizatsiya daromadlaridan alohida aks ettirish bo'yicha yagona uslubiy tartibni ishlab chiqish zarur. Uchinchidan, daromadlarni tan olish jarayonini 15-son MHXS talablari asosida shartnoma majburiyatlarining bajarilish bosqichlari bilan uzviy bog'lagan holda takomillashtirish lozim. To'rtinchidan, mahsulot turlari, realizatsiya bozorlari va mijozlar segmentlari kesimida elektron analitik hisobotlar tizimini joriy etish orqali daromadlar hisobi



shaffofligini oshirish hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun ishonchli axborot bazasini shakllantirish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Kieso D. E., Weygandt J. J., Warfield T. D. Intermediate Accounting. – 18th ed. – Hoboken: John Wiley & Sons, 2022. – 1824 p.
2. Epstein B. J., Mirza A. A. Wiley Interpretation and Application of International Financial Reporting Standards. – Hoboken: John Wiley & Sons, 2023. – 1456 p.
3. Nobes C., Parker R. Comparative International Accounting. – 15th ed. – Harlow: Pearson Education Limited, 2022. – 656 p.
4. Schaltegger S., Burritt R. Contemporary Environmental Accounting: Issues, Concepts and Practice. – London: Routledge, 2017. – 462 p.
5. Астахов В. П. **Бухгалтерский (финансовый) учет**: учебник. – 13-е изд., перераб. и доп. – Москва: Юрайт, 2021. – 552 с.
6. Палий В. Ф. **Международные стандарты финансовой отчетности**: учебник. – Москва: ИНФРА-М, 2019. – 506 с.
7. Соколов Я. В. **Основы теории бухгалтерского учета**. – Москва: Финансы и статистика, 2013. – 496 с.
8. Ҳасанов Б. А. **Молиявий ҳисоб**: дарслик. – Тошкент: Iqtisod-Moliya, 2021. – 512 б.
9. Уразов К. Б. ва бошқалар, **Бухгалтерия ҳисоби ва аудит**: дарслик. – Тошкент: Iqtisod-Moliya, 2022. – 468 б.
10. Ризақулов А. А. **Қишлоқ хўжалиги корхоналарида бухгалтерия ҳисоби**: ўқув қўлланма. – Тошкент: Fan va texnologiya, 2022. – 384 б.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100